

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KABILOVA KAMOLA MUMINDJANOVNA

QADOQLASH MAHSULOTLARINI CHOP ETISH SIFATINI TA‘MINLASH
UCHUN TO‘QIMACHILIK CHIQINDILARINI QO‘SHIB QOG‘OZ
MASSASINI MODIFIKATSIYALASH

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
science**

Kabilova Kamola Mumindjanovna

Qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini ta’minlash uchun to‘qimachilik
chiqindilarini qo‘shib qog‘oz massasini modifikatsiyalash..... 3

Кабилова Камола Муминджановна

Модификация бумажной массы с включением текстильных отходов для
обеспечения качества печати упаковочной продукции 23

Kabilova Kamola Mumindjanovna

Modification of paper pulp with the inclusion of textile waste to ensure the
printing quality of packaging products 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KABILOVA KAMOLA MUMINDJANOVNA

QADOQLASH MAHSULOTLARINI CHOP ETISH SIFATINI TA‘MINLASH
UCHUN TO‘QIMACHILIK CHIQINDILARINI QO‘SHIB QOG‘OZ
MASSASINI MODIFIKATSIYALASH

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5346 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djalilov Anvar Abdugafarovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baxadirov G'ayrat Ataxanovich

texnika fanlari doktori, professor

Ravshanov Dilshod Chorshanbiyevich

texnika fanlari nomzodi, dotsent

(Tojikiston Respublikasi)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «17» fevral soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871)253-06-06, (+99871)253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi (2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 272-raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «04» fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil «04» fevral № 272-raqamli reestr bayonnomasi).



X.X. Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi,

Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



A.Z. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi,

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor



Sh.Sh. Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi,

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda matbaa xizmatlari bozori hajmi 2025-yilda 12,96 mlrd. AQSh dollariga baholanishi kutilmoqda va 2034-yilga kelib taxminan 102,99 mlrd. dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, bu esa 2025-yildan 2034-yilgacha bo'lgan davrda 26 foiz o'sish suratinı anglatadi. Matbaaning asosiy xomashyosi qog'oz bo'lib, dunyo bo'yicha qog'oz ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 418 mln. tonnaga yetgan. Hozirgi kunda yozuv-bosma qog'oz turlariga nisbatan qalin qog'oz ishlab chiqarish tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Asosiy talab o'rash-qadoqlash qog'ozlariga qaratilmoqda. Natijada, 2027-yilda sellyuloza-qog'oz bozori hajmi 368,10 mlrd. AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilingan. Bu borada qog'oz mahsulot ishlab chiqarishda yangi xomashyo manbalarini izlash, ular asosida olingan qog'ozlardan matbaa sohasida foydalanish imkoniyatlarini o'rganish muhim vazifalardan biridir.

Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish talablari hamda polimer materiallarning zararli ekanligi bilan bog'liq cheklovlar tufayli mahsulotlarni qadoqlashda ekologik toza materiallardan, ayniqsa muqobil xomashyolardan olinadigan qadoqlash qog'ozlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini ta'minlash uchun to'qimachilik chiqindilarini qo'shib qog'oz massasini modifikatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bunda ikkilamchi xomashyo ulushini oshirish, innovatsion texnologik yechimlarni qo'llash, ishlab chiqilayotgan materiallarni tadqiq qilish va xossalarini takomillashtirish, bu jarayonlarning ekologik, iqtisodiy va texnologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada bugungi kunda mahalliy qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarishda chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilish, muqobil, ikkilamchi tolali materiallardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ... iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mahalliy ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalangan holda qadoqlash mahsulotlari uchun kompozitsion qog'oz va karton ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, chop etish jarayonida ularning bo'yoqlar bilan ta'sirlashuvi qonuniyatlarini ilmiy asoslash, import qilinadigan xomashyolarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 25-avgustdagi PQ-3244-son "Respublikada sellyuloza va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qo'-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

shimcha quvvatlar tashkil etish to‘g‘risida”gi va 2020-yil 16-martdagi PQ-4640-son “Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda Prezident tashabbusi bilan 2025-yilni “**Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili**” deb belgilanishi, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kompozitsion karton va qog‘oz turlarini ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasini tadqiq etish bilan xorijda A.Ozkan va Ye.Armanlar, N.E.Kotelnikova, Chaorong Li va Rui Chen, M.Guana, A.Xinguelar, rossiyalik olimlardan N.Xomutinnikov, N.Midukov, A.Smolin, D.Dulkin kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Tarkibida turli tolalar mavjud qog‘ozlarning bosma-texnik xossalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar, I.G.Gromiko, C.C.Mill, E.Belozarov, O.Martyanova, G.I. Turchinova, D.I.Vlasenko, R.Olsson, L.A.Kozarovitskiy, Yang Li, S.Aydemir, S.Yenidogan, John MacPhee, A.A. Berlin, S.S. Voyutskiy, A.D.Zimon kabi olimlar va ixtirochilar tomonidan o‘tkazilgan.

Respublikamizda ikkilamchi sellyulozali materiallar va to‘qimachilik sanoati chiqindilaridan foydalangan holda yangi qog‘oz turlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar X.A. Alimova, R.G. Raxmanberdiyev, M.T. Primkulov, X.A. Babaxanova, I.A. Nabiyeva, U.J. Yeshbayeva, A.A. Djalilov, Z.K. Galimova, A.A. Abdumajidov, D.A. Alimova kabi olimlar tomonidan bajarilgan. Tadqiqotlarda tabiiy ipak va kimyoviy tola chiqindilaridan foydalangan holda turli qog‘oz va karton olish, bir yillik o‘simliklarning tolalaridan, mahalliy daraxtsimon o‘simliklar, topinambur, qizilmiya ildizidan olinadigan sellyuloza asosida qog‘oz ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Bu tadqiqotlarda qadoqlash qog‘ozi va kartonlarni tayyorlashda massa tarkibiga to‘qimachilik mato chiqindilari va muqobil yelimlovchi moddalarni kiritish, ular kompozitsiyasining fizik-mexanik va bosma-texnik xossalariga ta’siri masalalari bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zukko Kitobxon” korxonasi bilan hamkorlikda tuzilgan xo‘jalik shartnomasi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini ta’minlash uchun to‘qimachilik chiqindilari asosida qog‘oz massasini modifikatsiyalash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to‘qimachilik korxonalarida yuzaga keladigan mato chiqindilarini qog‘oz massasi tarkibiga qo‘shish orqali paxta sellyulozasini iqtisod qilish;

yelimlash uchun mo'ljallangan gidroksipropilmetilsellyuloza va modifikatsiyalangan kation kraxmali yelimining qadoqlash qog'ozlarining xossalariga ta'sirini tahlil qilish;

tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud tajribaviy qadoqlash qog'ozlarining fizik-mexanik, bosma-texnik xossalarini o'rganish va yangi tarkibli qog'ozning bo'yoq bilan ta'sirlashish mexanizmini tadqiq qilish;

tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud tajribaviy qadoqlash qog'ozlari yuzasiga chop etilgan tasvirlarning gradatsion va rang kolorimetrik tavsifnomalarini o'rganish va rangli bosma mahsulot sifatini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari va gidroksipropilmetilsellyuloza hamda modifikatsiyalangan kation kraxmali yelimlovchi moddalar qo'shilgan, turli nisbatlarda olingan qadoqlash qog'ozlari namunalari, shuningdek, shu qog'ozlar yuzasiga chop etilgan ko'p rangli namuna nusxalar olingan.

Tadqiqot predmeti to'qimachilik mato chiqindilari va gidroksipropilmetilsellyuloza va modifikatsiyalangan kation kraxmali yelimlovchi moddalar qo'shilgan holda modifikatsiyalangan tarkibli qadoqlash qog'ozlarini olish, ularning fizik-mexanik va bosma-texnik xossalarini yaxshilashning struktura-mexanik omili, bosma nusxalarning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertasiya ishida tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari va gidroksipropilmetilsellyuloza hamda modifikatsiyalangan kation kraxmali yelimlovchi moddalar qo'shilgan qadoqlash qog'ozini olish va chop etish texnologik jarayonini amalga oshirish, qadoqlash qog'ozining fizik-mexanik va bosma-texnik xossalarini tadqiq qilish, IQ-spektroskopiya, mikroskopiya, zamonaviy spektrofotometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tolali tarkibi paxta sellyulozasi va 50% gacha miqdorda to'qimachilik mato chiqindilaridan iborat modifikatsiyalangan massani 45 °ShR qiymatda yanchish orqali qadoqlash qog'ozini olishning resurstejamkor texnologiyasi takomillashtirilgan;

tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog'ozini olish uchun gidroksipropilmetilsellyuloza va modifikatsiyalangan kation kraxmali asosidagi yelimlovchi moddalardan 2% gacha miqdorda foydalanishda qog'oz mustahkamligining oshishi aniqlangan;

tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog'ozining fizik-mexanik va bosma-texnik xususiyatlari, qog'oz kompozitsiyasi tarkibining bosma nusxalari sifatiga bog'liqlik darajasi IQ-spektroskopik va rang parametrlari tahlili asosida aniqlangan;

paxta sellyulozasi va to'qimachilik mato chiqindilaridan tayyorlangan qadoqlash qog'ozlari fizik-mexanik ko'rsatkichlari (silliqligi va zichligi)ning nusxalarni chop etishda optik zichliklarning shakllanishiga ta'siri natijalarni qayta ishlashning kichik kvadratlar usuli orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

matbaachilik sanoati uchun paxta sellyulozasi va to'qimachilik mato chiqindilaridan foydalanib, modifikatsiyalangan massadan qadoqlash qog'ozlarini tayyorlash texnologiyasi va qog'oz massasining ratsional tarkibi taklif etilgan;

modifikatsiyalangan massadan qog‘oz olishda zaruriy fizik-mexanik xossalarni ta‘minlash uchun gidroksipropilmetilsellyuloza va modifikatsiyalangan kation kraxmali asosidagi yelimlovchi moddalardan foydalanilgan;

tajribani matematik modellashtirish usulidan foydalanib tarkibida paxta sellyulosasi bilan birgalikda to‘qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog‘ozi fizik-mexanik xossalarining ularda olinadigan tasvirlarning optik zichligiga ta‘siri prognoz qilingan;

raqamli bosma nusxalari rang qamrovlarini tahlil qilish asosida tarkibida to‘qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog‘ozlaridan matbaada foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilingan muammo sohasida ma‘lum nazariy, eksperimental tadqiqotlarning mosligi, izlanishlar zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda asosli tanlanganligi, o‘tkazilgan aprobatsiyalar va ishlab chiqarishga joriy etilgan natijalarning ijobiyliigi, ularning o‘rganilgan fan sohasidagi ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tarkibiga paxta sellyulozasi bilan birgalikda to‘qimachilik mato chiqindilari va gidroksipropilmetilsellyuloza va modifikatsiyalangan kation kraxmali yelimlovchi moddalar mavjud qadoqlash qog‘ozi olish texnologiyasining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarkibiga paxta sellyulozasi va to‘qimachilik mato chiqindilari hamda gidroksipropilmetilsellyuloza (GPMS) va modifikatsiyalangan (MKK) kation kraxmali yelimlovchi moddalar mavjud qadoqlash qog‘ozi turlarining fizik-mexanik va bosma-texnik xossalarini o‘rganish hamda yangi texnologiyalarni takomillashtirish asosida mahsulotni qadoqlash korxonalarida joriy etilganligi, qadoqlash materiallari assortimentini kengaytirish bo‘yicha imkoniyatlarning yaratilganligi hamda mahsulot tannarxining arzonligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyodan foydalanib yangi tarkibli to‘qimachilik mato chiqindilari asosida qadoqlash qog‘ozi tayyorlash, fizik-mexanik va bosma-texnik xossalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tarkibida tolali chiqindilar bo‘lgan qadoqlash qog‘ozi “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi va MChJ “G.G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida joriy qilingan (“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining 2025-yil 5-noyabrdagi 2/21-147-son ma‘lumotnomasi). Natijada import o‘rnini bosuvchi modifikatsiyalangan tarkibli, yuqori darajadagi mexanik mustahkamlikka ega qadoqlash qog‘ozi olish imkoniyati yaratilgan hamda mahalliy xomashyo va chiqindilar asosida olingan qadoqlash qog‘ozi sifat bo‘yicha meyoriy hujjatlar talablarga javob beruvchi rangli nusxalar olishga va 42% iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9, ulardan 2 tasi chet elda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy xomashyo asosida qog'oz ishlab chiqarishning nazariy asoslari va texnologiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda va O'zbekistonda to'qimachilik matolari chiqindilari asosida qadoqlash qog'ozlarini olish texnologiyasi sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'oz ishlab chiqarishning hozirgi holati, rivojlanishi hamda bosma-texnik xossalarini nazorat qilish va boshqarish bilan bog'liq muammolar, tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozda chop etish jarayonida yuzaga keladigan o'ziga xosliklarni tahlil qilgan olimlarning ilmiy, nazariy ishlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozlarni ishlab chiqarishda birlamchi va ikkilamchi tolalardan tayyorlangan qog'ozning xususiyatlarini yaxshilashning eng samarali usuli bu yordamchi kimyoviy moddalardan foydalanish hisoblanadi. Birlamchi va ikkilamchi tolalar tarkibiga kimyoviy vositalarning qo'shilishi tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozning mustahkamligini oshiribgina qolmay, uning fizik-kimyoviy va bosma xossalarini yaxshilaydi.


Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog'ozlarini mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarish va mahalliy xomashyolardan olingan, tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozining strukturaviy-morfologik, mustahkamlik, deformatsion va bosma xossalarini o'rganish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog'ozini olish texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobi to'qimachilik chiqindilaridan qog'oz ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Birinchi qismda ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun uch turdagi to'qimachilik mato chiqindilari namuna sifatida tanlab olindi. Ularning strukturaviy tavsifi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti “Sentex Uz” laboratoriyasida aniqlandi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Gazlamalarning strukturaviy tavsifi

№	Namunalar	Gazlama qalinligi, mm	Yuza zichligi, gr/m ²	Tolali tarkib, %	Gazlama tashqi ko‘rinishi
1	Namuna-1	0,4	142,2	Paxta 100%	
2	Namuna-2	0,45	138,2	Paxta 100%	
3	Namuna-3	0,45	253,9	Viskoza 20%, poliefir 80%	



1-rasm. Tarkibida to‘qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog‘ozi ishlab chiqarish texnologiyasi

Tajribaviy qadoqlash qog‘ozi tarkibiga PS bilan birga turli xil nisbatlarda to‘qimachilik mato chiqindilaridan foydalanildi. Ular iflosliklardan tozalandi.

Keyingi jarayonni bajarish uchun tegirmon va maydalagichlardan foydalanildi. So'ngra 6% konsentratsiyali fermentlar, sirt faol moddalar ishtirokida 2–3 soat davomida oldindan bo'ktirildi va tegirmonda maydalandi.

Yelimlovchi sifatida qog'oz massasi tarkibiga GPMS va MKK qo'shildi va texnologik sxema (1-rasm) asosida qadoqlash qog'ozini namunalari olindi.

Tajriba davomida PS+TMChlari asosiy yarim tayyor mahsulot sifatida tanlandi. Olingan namunalarda (2-jadval) qog'ozning zichligi, uzulish uzunligi, bukilishga chidamliligi, zichligi va kulliligi o'rganildi hamda natijalarning normativ hujjatlarga mosligi tahlil qilindi.

2-jadval

Tajribaviy TMCh mavjud qadoqlash qog'ozlari fizik-mexanik xossalarining kompozitsiya tarkibiga bog'liqligi (yelimlovchi modda MKK, qog'oz ogirliqi $\approx 90 \pm 4 \text{ g/m}^2$)

Ko'rsatkichlar	Variantlar										
	Kompozitsion tarkib, %										
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Qog'oz massasida PS miqdori, %	100	90	80	70	60	50	40	30	20	10	0
Qog'oz massasida TMCh miqdori, %	-	10	20	30	40	50	60	70	80	90	100
Uzulish uzunligi, m	3640	3641	3644	3645	3647	3650	3642	3635	3632	3636	3632
Zichligi g/m^3	0,78	0,76	0,77	0,80	0,84	0,88	0,82	0,78	0,76	0,74	0,75
Bukilishi, i.b.s.	56,6	48	51	54	56	63,0	62,8	62,4	62,5	61,8	61,2
Kullilik, g	0,7	0,6	0,6	0,6	0,8	0,8	0,9	0,7	0,8	0,9	0,9

Tadqiqotning keyingi bosqichida tarkibiga PS+TMCh chiqindilari ulushi 0–100 foizgacha bo'lgan 90 ± 4 va $120 \pm 6 \text{ g/m}^2$ og'irlikdagi qog'oz namunalari olinib, ularning fizik-mexanik xossalari o'rganildi va normativ hujjatlarga mosligi tahlil qilindi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadoqlash qog'ozining mustahkamlik xususiyatlarini yaxshilanishi bevosita uning zichligi va qalinligiga bog'liq bo'lib, ushbu parametrlarning ortishi bilan qog'ozning mexanik mustahkamlik ko'rsatkichlari 5 foizga yaxshilanganligi kuzatildi.

Qog'oz mustahkamligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat: tolalarning mustahkamligi, egiluvchanligi, ularning yo'nalganligi (oriyentatsiyasi), tolalararo bog'lanish mustahkamligi, shuningdek, massa tarkibidagi yelimlovchi moddalarning xususiyatlari. Keyingi bosqich tajribaviy tadqiqotining maqsadi - tajribaviy qog'ozlar mexanik xossalarini yaxshilash uchun qog'oz massasiga GPMS va MKK yelimlari qo'shildi va tajribaviy qog'oz namunalari olindi (2-rasm).



2-rasm. Olingan qog‘oz namunalari


Tadqiqot ishlari davomida yuqorida namuna sifatida olingan qog‘ozlar ichidan, mexanik xossalari yuqori bo‘lgan quyidagi 6 turdagi tajribaviy qog‘oz namunalari tanlab olindi (3-jadval) va keyingi tajribalar ular bilan amalga oshirildi.

3-jadval

Tadqiqot obyektlari


Namuna qog‘ozlar	Namunalarning tolali va yelimlovchi modda tarkibi
№1	100 % PS, massada MKK
№2	50% PS va 50% TMCh, massada MKK
№3	100 % TMCh, massada MKK
№4	100 % PS, massada GPMS
№5	50% PS va 50% TMCh, massada GPMS
№6	100 % TMCh, massada GPMS

Tadqiqotning keyingi bosqichida to‘qimachilik mato chiqindi tolalarining selluloza bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganish uchun olingan namuna qog‘ozlarning IQ spektroskopik tahlili o‘tkazildi (3-rasm). IQ spektroskopik tadqiqot Perkin Elmer (AQSh) firmasining qurilmasida amalga oshirildi.



3-rasm. №2 qadoqlash qog‘ozining IQ spektroskopik tahlili

Olingan tahlil natijalariga ko'ra №2 qadoqlash qog'ozining IQ spektrida PS, TMCh va GPMSga xos bo'lgan funksional guruhlar (OH, CH₂, CH₃, C-O-C, C-OH) mavjudligi anidlandi. Bo'yoq komponentlari bo'lmagani sababli, pigmentlarga oid piklar kuzatilmadi.



4-rasm. №5 qadoqlash qog'ozining IQ spektroskopik tahlili

№5 qadoqlash qog'ozining IQ spektrida hech qanday pigmentli aromatik guruhlar mavjud emasligi sababli, past sohadagi (700–500 cm⁻¹) tebranishlar faqat asosiy qog'oz komponentlariga xos bo'lib, ayniqsa sellyuloza va MKK moddalari uchun tavsiflidir. IQ spektrografiya yordamida qog'oz ishlab chiqarish jarayonida TMCh tolalar ikkilamchi bog'larni hosil qilishi aniqlandi. Ushbu bog'larning shakllanishiga tolalarning fibrillanishi yuzaga kelishi sezilarli darajada ijobiy natijalarga erishilishi kuzatildi va qog'oz massasi tarkibiga PS bilan birga TMCh va yelimlovchi moddalar qo'shilganda funksional guruhlar (OH, CH₂, CH₃, C-O-C, C-OH) mavjudligi aniqlandi.

Bosma materiallarning silliqdigi (yuzaning tekisligi) matbaa mahsuloti uchun muhim parametrlardan biri hisoblanadi. Namuna qog'ozlarning silliqdigi TTYSI matbaa laboratoriyasida mavjud YT-ABST avtomatik silliqlikni tekshiruvchi qurilma yordamida amalga oshirildi va olingan natijalar 4-jadvalda keltirildi.


4-jadval

Tajribaviy tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog'ozining silliqlik qiymatlari

Tajribaviy tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'oz turlari	Tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozining silliqdigi, soniya		GOST 9094-89
	Yuza tomoni	To'r tomoni	
№1	45	27	30-80 soniya
№2	56	42	30-80 soniya
№3	53	38	30-80 soniya
№4	47	23	30-80 soniya
№5	53	35	30-80 soniya
№6	52	37	30-80 soniya

Olingan natijalar №2 va №5 - namuna qog'ozlarda, №3 va №6 – tajribaviy qog'ozlarga nisbatan, silliqlik ko'rsatkichlari yaxshiroq ekanligini ko'rsatadi.


Bosma materiallarning oqligi xalqaro va milliy normalar bilan tartibga solinadi (ISO 11475, ISO 2469, ISO 2470, GOST 30113). Ayrim qog'ozlarda oqlik daraja 100 foizdan oshishi mumkin. Qog'ozning oqligi qanchalik baland bo'lsa, tasvir shuncha kontrastli bo'ladi va rangni yaxshi qabul qiladi. Tajribaviy tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'ozlarning oqlik darajasi leykometr yordamida aniqlandi va natijalar 5-rasmda ko'rsatilgan.



5-rasm. Tajribaviy tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog'ozining oqlik darajasi diagrammasi

Olingan natijalarga ko'ra, tajribaviy qadoqlash qog'ozlari namunalari oqlik ko'rsatkichlari 84,5 dan 89 foizgacha. Barcha tajribaviy tarkibida to'qimachilik mato chiqindilari mavjud qog'oz namunalari ko'p rangli chop etish talablariga javob beradigan yetarlicha yuqori oqlik qiymatlariga ega (GOST 30113-94).

Tadqiqotning keyingi bosqichida tajribaviy qadoqlash qog'ozining shimuvchanlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Qog'ozning bosma bo'yoqqa nisbatan shimuvchanligi qog'oz massasiga tabiiy tolalarning kiritilishi, g'ovaklilik va kapillyar o'lchamlarning kamayishi hamda qog'oz yuzasining silliqligi bilan izohlanadi (GOST 9094-89) (6-rasm).



6-rasm. Tajribaviy tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog'ozining shimuvchanlik ko'rsatkichlari


O‘tkazilgan tajribalar davomida tajribaviy namuna qog‘ozlar yuzasining g‘adir-budurlik topografiyasi o‘lchandi va grafik tarzdagi profilogrammlar olindi. Olingan profilogrammlar asosida qog‘oz yuzasining g‘adir-budurlik parametrlari (R_a , R_z , R_q) bo‘yicha o‘rtacha natijalar olindi va ularning standart og‘ishlari umumlashtirildi. Natijalardan shuni ta’kidlash mumkinki, namuna qog‘ozlarning yuza g‘adir-budurligi parametrlari R_a , R_y , R_z va R_q ilmiy adabiyotlarda keltirilgan qiymatlarga yaqin bo‘lib, ushbu parametrlar massa tarkibidagi to‘qimachilik mato chiqindilari miqdorining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi. Olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Tajribaviy tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog‘ozlarining g‘adir-budurligi

Ko‘rsatkichlar	Tajribaviy tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog‘ozlari namunalari					
	№1	№2	№3	№4	№5	№6
R_a μm	4,048	3,289	3,540	3,883	3,050	4,882
R_z μm	24,486	18,401	20,048	22,548	18,604	27,666
R_q μm	5,028	4,004	4,362	4,808	3,853	5,947

Dissertatsiyaning “**Tarkibida TMCh mavjud tajribaviy qog‘ozning bosma-texnik xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida tajribaviy namuna qog‘oz yuzasiga ko‘p rangli tasvirlarni chop etish uchun kompleks nazorat test shkalasi tayyorlandi va namuna nusxalar olindi. Dastlab, bosma mahsulotlarning maqsadli foydalanishga yaroqlilik darajasini ko‘rsatadigan, bosma mahsulot sifatini baholashga imkon beruvchi nazorat shkala obyektlari to‘plami tuzildi. Fayl-maketni tayyorlash vaqtida bosma nusxasining rangi haqidagi kerakli ma’lumotlar hisobga olindi. Ishlab chiqilgan test fayl-maketi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Nazorat test shkalasi


Chop etilgan tasvirlarning optik zichligi spektrodensitometr yordamida o‘lchandi. Barcha o‘lchovlar bajarilgandan so‘ng, har bir tarkibida to‘qimachilik mato chiqindilari mavjud qog‘oz uchun o‘rtacha natija hisoblab chiqildi. Chop etilgan nusxalarda asosiy ranglarning optik zichlik qiymatlari xalqaro ISO 12647-2 standartlariga mos keladi. Olingan optik zichlik ko‘rsatkichlari jadval ko‘rinishiga keltirildi (6-jadval).

6-jadval

Namuna nusxalarda optik zichlik ko‘rsatkichlari ($D_{0,z}$)


Rang	Tarkibida TMCh mavjud qadoqlash qog‘ozi namunalari						
	ISO 12647-2	№1	№2	№3	№4	№5	№6
Cyan	1,00	1,13	1,21	1,24	1,24	1,21	1,13
Magenta	0,96	1,35	1,65	1,49	1,47	1,49	1,46
Yellow	0,98	1,11	1,25	1,02	1,15	1,12	1,14
Black	1,28	1,42	1,19	1,18	1,26	1,22	1,27

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida bosma jarayon komponentlari (qog‘oz va bo‘yoq) o‘zaro ta‘sirini, ularning g‘adir-budurligi, shakli, tolalar joylashishi va taqsimlanishini tahlil qilish uchun IQ-spektroskopik tahlili amalga oshirildi. Namuna qog‘ozlar yuzasiga raqamli bosma usulida chop etilgan ranglardan havorangli tasvir namunalari tanlab olindi. Havorang tonerning xususiyatlarini baholash orqali namuna qog‘oz yuzasida yopishib tasvir hosil qilgan pigmentlarning taqsimlanishi va ranglarning qog‘oz g‘ovakliklariga kirib borishi hamda mustahkamlanishi tahlil qilindi.



8-rasm. №2 namuna qog‘ozining CYAN bo‘yog‘i bilan ta‘sirlashuvining IQ-spektroskopik tahlili

№2 tajribaviy qadoqlash qog‘ozi namunasida PS, TMCh va GPMS komponentlariga xos bo‘lgan barcha asosiy funksional guruhlar aniqlangan. Shu bilan birga, 1726 cm^{-1} va $400\text{--}700\text{ cm}^{-1}$ oralig‘idagi signallar bosma bo‘yoq (CYAN) pigmentining qatnashganligini va qog‘oz yuzasi bilan kimyoviy yoki fizik o‘zaro ta‘sir mavjudligini ko‘rsatadi.




9-rasm. №5 namuna qog‘ozining CYAN bo‘yog‘i bilan ta‘sirlashuvining IQ-spektroskopik tahlili

№5 tajribaviy qadoqlash qog‘ozini namunasi IQ spektrida PS, TMCh va MKK komponentlariga xos funksional guruhlar bilan birga, pigment ta‘sirini ko‘rsatuvchi karbonil va aromatik tebranishlar aniq qayd etilgan. Bu pigment va qog‘oz komponentlari o‘rtasida o‘zaro ta‘sir mavjudligini bildiradi.

Tarkibida 50% PS va 50% TMCh mavjud CYAN bo‘yoq bilan chop etilgan namuna nusxa IQ spektrida PS, TMCh va GPMS komponentlariga xos bo‘lgan barcha asosiy funksional guruhlar aniqlangan. Shu bilan birga, 1724 cm^{-1} – C=O guruhining valent tebranishi, CYAN pigmentidagi karbonil guruhlar ishtirokini va qog‘oz yuzasi bilan kimyoviy yoki fizik o‘zaro ta‘sir mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida raqamli bosma usulida bosilgan tajribaviy qog‘ozlarning sifatini nazorat qilish uchun spektrofotometr yordamida **rang qamrovi** L^* , a^* va b^* qiymatlari tadqiq qilindi. Tajribaviy 6 ta namuna qog‘ozlar holatida olingan shablon rang maydonlarida tanlangan hududlarning tasvirlarni tashkil etuvchi spektrlar asosiy komponentlar tahlili baholandi.

Tajriba uchun olingan qog‘ozlar yuzasiga tushirilgan ko‘p rangli tasvirni baholashi uchun nazorat test shkalasidan foydalanib, shkala maydonlariga mos ravishda alohida bo‘yoqlarning rastr elementlari nisbiy maydonlari tanlandi va o‘lchandi. Olingan natijaga ko‘ra qurilgan grafiklar (10-rasm) asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tajribaviy qadoqlash qog‘ozini yuzasiga raqamli bosma usulida chop etilgan rangli tasvirlarda bo‘yoqning teng taqsimlanganligini kuzatish mumkin. Rang qamrovi grafigida hech qanday noto‘g‘ri yorug‘lik yoki qo‘pol o‘zgarish kuzatilmadi.




10-rasm. Raqamli bosmaning rang qamrovi tahlili:

№1, №2, №3, №4, №5, №6 namuna qadoqlash qog‘ozlari uchun rang qamrovi

Tadqiqot davomida tarkibida to‘qimachilik mato chiqindilari mavjud qadoqlash qog‘ozi yuzasiga raqamli bosma usuli yordamida chop etilgan shtrixli tasvirlarning grafik aniqligi mikroskopik usulda o‘rganildi (11-rasm).

Mikroskopik kuzatuvlar natijasida qadoqlash qog‘ozi yuzasida bosilgan shtrixli bosma elementlarning aniq konturlarga ega ekanligi qayd etildi. Uning asosiy va birlashtiruvchi elementlari qalinligi jihatidan bir xil bo‘lib, tasvirda mayda detallar yo‘qolmagan hamda chiziqlar xiralashmagan.




11-rasm. Namuna yuzalarida bosma bo‘yog‘i taqsimlanishini mikroskopik tasviri

Qog‘oz massasida PS takribiga kiritilgan to‘qimachilik chiqindilarining raqamli bosma nusxalari sifatiga ta’siri qonuniyatini o‘rganish maqsadida namunaviy olingan qog‘ozlardagi nusxalar yuzasining morfologiyasi baholandi (12-rasm). Taqqoslash uchun oq (1-namuna, 1-jadval) va rangli (2-namuna, 2-jadval) to‘qimachilik chiqindilari qo‘shib tayyorlangan qog‘ozlarda chop etilgan miralar tahlil qilindi. Nusxalarda bosiluvchi elementlar konfiguratsiyasining o‘zgarishini aniqlash uchun sirpanishning nazorat elementi sifatida shkaladagi radial miralardan foydalanildi.

Natijalar tahlilida oq rangli chiqindilardan oqlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan qog‘oz olingan va mirada elementlar aniqroq hosil bo‘lgan. Rangli chiqindilardan olingan qog‘ozda to‘qimani bo‘yashdagi bo‘yovchi qoldiqlari raqamli bosma toneri bilan birgalikda mayda elementlarning buzilishini keltirib chiqargan.

Rasmdan ko‘rinadiki, tasvirlarda grafik elementlar buzilishlarsiz hosil bo‘lgan, ko‘rinadigan “sakkizlik” mavjud emas, ya’ni sirpanish sodir bo‘lmagan. Mirada barcha o‘qlarning tutashuvi joyidagi nuqta rastr nuqtalarining kattalashuvi mavjud emasligidan dalolat beradi.



12-rasm. Nusxadagi nazorat shkalari

Tadqiqot ishining “**Qadoqlash qog‘ozlari xossalari tasvirlarni chop etish sifatiga ta’siri**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajribaviy qadoqlash qog‘oziga bosish jarayonini tadqiq qilishda tajribani matematik rejalashtirish va tajribaviy qog‘ozlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Tajribani matematik rejalashtirishda optimallashtirish parametri y sifatida optik zichlik qabul qilingan, kirish parametrlari x_i esa qog‘ozning zichligi x_1 (g/sm^3) va silliqlik x_2 (soniya).

7-jadvalda aprior axborot asosida tanlangan asosiy darajalar va variatsiyalash intervallari keltirilgan.

7-jadval

Faktorlarni variatsiyalashning darajalari va intervallari

Faktorlar	Kodli belgilanishi	Variatsiyalash intervallari	Faktorlarning darajalari		
			yuqori +1	asosiy 0	quyi -1
Zichlik g/sm^3	x_1	0,1	0,85	0,75	0,65
Silliqlik, s	x_2	30	80	50	20

Rejalashtirish matritsasi va sinovlarning natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Rejalashtirish matritsasi va sinovlarning natijalari

Sinovning raqami	x_0	x_1	x_2	x_1x_2	y
1	+	-	-	+	1,25
2	+	+	-	-	1,42
3	+	-	+	-	1,38
4	+	+	+	+	1,52

Koeffitsiyentlar $|b_{12}| < |\Delta b_i|$ bo'lganligi uchun statistik ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun kodlashtirilgan o'zgaruvchilarga ega regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$y = 1,3925 + 0,0775x_1 + 0,0575x_2 \quad (1)$$

$$S_{ad}^2 = \frac{\sum_{j=1}^N (y_j - \hat{y}_j)^2}{f} = \frac{\sum_{j=1}^N (y_j - \hat{y}_j)^2}{N - (k+1)}, \quad (2)$$

(2) formula bo'yicha adekvatlik dispersiyasi S_{ad}^2 ni aniqlash.

Buning uchun yordamchi 9-jadval tuziladi, u yerda (1) formula bo'yicha hisoblangan j -sinovdagi optimallashtirish parametrining qiymatlari keltirilgan.

9-jadval

S_{ad}^2 ni hisoblash uchun yordamchi jadval

Sinovning raqami	y_j	\hat{y}_j	$(y_j - \hat{y}_j)$	$(y_j - \hat{y}_j)^2$
1	1,25	1,2575	-0,0075	0,00005625
2	1,42	1,4125	0,0075	0,00005625
3	1,38	1,3725	0,0075	0,00005625
4	1,52	1,5275	-0,0075	0,00005625

$F_p < F_T$ bo'lganligi tufayli (1) tenglama bilan ifodalangan model adekvat hisoblanadi. Optimallashtirish parametri y ning qiymatlari sinovlarning xatoligidan oshmaydigan darajada tajribaviy qiymatlardan farq qiladi.

Tajribaning mazkur shartlari uchun maksimal optik zichlikka erishishning ratsional parametrlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi: qog'ozning zichligi $0,85\text{g/sm}^3$, sillqlik 80 soniya.

Tadqiqot ishida TMChlarini qog'oz sanoatida qo'llab, qadoqlash mahsulotlari uchun yangi tarkibli qog'oz olindi. Shuningdek, TMChlarining atrof-muhitga ta'siri muhokama qilindi va qayta ishlash amaliyotlari aylanma iqtisodiyot doirasida

barqarorlikni oshirishga ta'siri va olingan qog'oz turining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi.

Taklif qilinayotgan tajribaviy qadoqlash qog'ozlari xorijdan eksport qilinayotgan ba'zi turdagi bosma material o'rnini bosishi mumkin, bu holat ishlab chiqarishda moddiy resurslarning sezilarli darajada tejalisiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi korxonalarda mahalliy xomashyolardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, respublika ko'lamida qadoqlash mahsulotlari uchun mo'ljallangan qog'ozlarni ishlab chiqarish muammosini hal qilishga, chiqindilardan maqsadli foydalanish hisobiga ma'lum ekologik muammolarning yechilishiga xizmat qiladi.

Taklif qilinayotgan qadoqlash qog'ozini ishlab chiqarishda asosiy xomashyo o'rniga PS va TMChlarini kiritgan holda jarayon tashkil qilinganda 1 kg mahsulot qiymatini 5712 so'mga pasaytirishga erishiladi va 1 kg qog'ozdan olinadigan qo'shimcha foyda esa 850 so'mni tashkil qiladi, 1 tonna mahsulotdan: (MKK) qadoqlash qog'ozidan 1649,82 ming so'm va (GPMS) qog'ozidan 1591,43 ming so'm foyda olishga erishiladi. Har ikkala mahsulotni 1 kilogrammdan 850 so'mdan qo'shimcha foyda olinadi.

Iqtisodiy samaradorlik 20% dan 30,3% ga, ya'ni 10,3% ga oshishiga erishildi.

XULOSA

“Qadoqlash mahsulotlarini chop etish sifatini ta'minlash uchun to'qimachilik chiqindilarini qo'shib qog'oz massasini modifikatsiyalash” mavzusidagi dissertatsiya ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Qadoqlash qog'ozlari ishlab chiqarish uchun ratsional xomashyo tarkibi (PS, TMCh va yelimlovchi moddalar) va texnologik parametrlar asoslandi.

2. 2% miqdordagi GPMS va MKK qo'llanishi natijasida tajribaviy qog'ozlarning mustahkamlik ko'rsatkichlarini ta'minlash yechimlari topildi. Olingan qadoqlash qog'ozining uzilish uzunligi varaqli va rulonli bosma turlari uchun mos kelishi isbotlandi.

3. Qog'oz massasiga 50% gacha TMCh qo'shilgan tajribaviy qog'ozlarning fizik-mexanik va bosma xossalari raqamli lazerli bosma texnologiyasi talablariga to'liq javob berishi aniqlanib, bunday qog'ozlar bosma uchun tavsiya qilindi.

4. Qog'oz kompozitsiyasida 50% TMCh qo'llanganda ikki tomonlama buklanishga chidamlilik ko'rsatkichi GPMS yelimi qo'shilganda 20% va MKK yelimi qo'shilganda 11% yaxshilanishiga erishildi.

5. Ikki xil turdagi yelimlovchidan foydalanilganda tajribaviy qog'ozlarning oqligi 85-88% ni tashkil qildi, bu me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha sifatli bosma uchun talab qilinadigan minimal 76% ko'rsatkichdan yuqori.

6. Bosma xossalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 50% TMCh qo'shilgan qog'ozlarda rang qamrovining boshqa variantlarga nisbatan kattaroq bo'lishiga erishish mumkin.

7. Qog‘oz–bo‘yoq tizimining o‘zaro ta’sirini modellashtirish natijasida silliqlikning 80 soniya, zichlikning 85 g/sm^3 bo‘lgan qiymatlarida yuqori sifatli bosma nusxalar olish mumkinligi ko‘rsatildi.

8. TMCh qo‘shilgan qog‘oz kompozitsiyasidan foydalanish, qadoqlash qog‘ozlari ishlab chiqarish korxonalarida mahalliy xomashyo asosida tejamkor texnologiyani joriy etish imkonini berib, 1 tonna tajribaviy qadoqlash qog‘ozini ishlab chiqarishda 5 712 000 so‘m miqdorida iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

КАБИЛОВА КАМОЛА МУМИНДЖАНОВНА

**МОДИФИКАЦИЯ БУМАЖНОЙ МАССЫ С ВКЛЮЧЕНИЕМ
ТЕКСТИЛЬНЫХ ОТХОДОВ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА
ПЕЧАТИ УПАКОВОЧНОЙ ПРОДУКЦИИ**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.1.PhD/T5346.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Джалилов Анвар Абдугафарович**
доктор философии по техническим наукам, доцент

Официальные оппоненты: **Бахадиров Гайрат Атаханович**
доктор технических наук, профессор

Равшанов Дилшод Чоршанбиевич
кандидат технических наук, доцент
(Республика Таджикистан)

Ведущая организация: **Бухарский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «17» февраля 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжохон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-222 аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за №272). Адрес: 100100, г.Ташкент, ул. Шохжохон-5, тел.:(+99871)253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «04» февраля 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 272 от «04» февраля 2026 года).



Х.Х. Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор



А.З. Маматов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор



Ш.Ш. Хакимов

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире рынок полиграфических услуг в 2025 году достигнет 12,96 млрд долларов, а к 2034 году прогонзирован рост примерно до 102,99 млрд долларов, что означает рост на 26% в период с 2025-го по 2034-й годы. Основным сырьём полиграфии является бумага и как известно, мировой объём ее производства в 2024 году достиг 418 млн тонн. В настоящее время наряду с видами писчей и печатной бумаги стремительными темпами развивается производство более плотных видов бумаги. Основной спрос направлен на упаковочные виды бумаг. В результате прогнозируется, что к 2027 году объём рынка целлюлозно-бумажной продукции достигнет 368,10 млрд долларов США. В этом контексте важными являются поиск новых источников сырья при производстве бумажной продукции, изучение возможностей использования полученных бумаг в полиграфической промышленности.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на производство экологически чистых упаковочных материалов, особенно бумаги, полученной из альтернативного сырья, согласно требованиям по охране окружающей среды и ограничениям, обусловленным вредностью полимерных материалов. В этом направлении приоритетными считаются исследования по модификации бумажной массы путем добавления текстильных отходов для обеспечения качества печати упаковочной продукции. При этом особое внимание уделяется увеличению доли вторичного сырья, применению инновационных технологических решений, исследованию разрабатываемых материалов и совершенствованию их свойств, а также экологическим, экономическим и технологическим аспектам этих процессов.

В нашей республике реализуются комплексные меры по внедрению безотходных технологий в производство бумажной продукции, расширению использования альтернативных и вторичных волокнистых материалов и получены определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены важные задачи по «...повышению конкурентоспособности национальной экономики, ... сокращению энергозатрат и ресурсопотребления в экономике, широкому внедрению энергосберегающих технологий в производство»¹. В реализации этих задач важное значение имеют совершенствование технологии производства бумаги и картона для упаковочных изделий с использованием местных производственных отходов, научное обоснование закономерностей их взаимодействия с красителями в процессе печати, а также реализация программы локализации производства импортируемого сырья.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе и Постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-5653 от 2 февраля 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию информационной сферы и массовых коммуни-

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

каций», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3244 от 25 августа 2017 года «О создании дополнительных мощностей по производству целлюлозно-бумажной продукции в республике» и № ПП-4640 от 16 марта 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию издательской и полиграфической сферы», а также в инициативе Президента Республики Узбекистан об объявлении 2025 года «Годом охраны окружающей среды и “зелёной” экономики», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан по направлению II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

